

MILLIY G'OYANING SHAKLLANISH TARIXI, UNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

*Renessans ta'lim universiteti Filologiya va tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi
2-kurs 37-23-guruh talabasi
Mamasoliyeva Ruxshona Tolib qizi*

Annotatsiya ushbu maqolada milliy g'oya, uning qanday shakllanganligi, uning shakllanish davrlari, uning qanday vaziyatlarda qanday namoyon bo'lishi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Annotation this article contains information about the national idea, how it was formed, the periods of its formation, and the situations in which it is manifested.

Аннотация в данной статье содержится информация о национальной идеи, о том, как она формировалась, периоды ее формирования и как в каких ситуациях она проявляется.

Kalit so'zlari milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, milliy g'oya shakllanish tarixi, shakllanish davrlari, uning shakllanishiga bevosita bog'liq qabilalar, milliy g'oyani rivojlantirish, milliy g'oyaning namoyon bo'lishi.

Keywords national idea, foundations of spirituality, history of the formation of the national idea, periods of formation, tribes directly related to its formation, development of the national idea, manifestation of the national idea.

Ключевые слова национальная идея, основы духовности, история формирования национальной идеи, периоды формирования, племена, непосредственно связанные с ее формированием, развитие национальной идеи, проявление национальной идеи.

Faqat milliy ruh qo'shish kerak. Bu yerda shaharning tarixi, xalqimizning an'analari aks etsin. Har bir yosh toifasidagi inson bog'da o'z joyini topa olsin, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Milliy g'oya bu muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mo-hiyatiga ko'ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. Har bir xalqning taraqqiyoti va istiqboli milliy g'oya bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy g'oya jamiyat a'zolarining maqsad va intilishlarini birlashtiruvchi, ularning o'zlikni anglashini mustahkamlovchi qadriyatlar tizimidir. Milliy g'oya har bir millat tarixiy tajribasiga, an'ana va madaniyatiga asoslangan holda shakllanadi va rivojlanadi.

O‘zbekiston misolida milliy g‘oya mustaqillikdan keyin yangi bosqichga chiqib, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyot omiliga aylandi. Milliy g‘oyaning tarixiy shakllanishida quydagicha omillarni tasirini kuzatishimiz mumkin. Milliy g‘oyaning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi. Har bir xalq o‘z tarixida murakkab bosqichlarni boshdan kechirgan. Turkiston o‘lkasi xalqlari tarixida ham milliy g‘oyaning shakllanishi bir necha bosqichlardan iborat. Qadimgi davr va o‘rta asrlar: Bu davrda milliy g‘oya o‘z aksini qadimgi turkiy davlatlar, jumladan, Xunlar, G‘okturklar, Somoniylar va Temuriylar davrida topgan. Ushbu davlatlar xalqni birlashtirish, hududiy yaxlitlikni saqlash va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash orqali milliy g‘oyani shakllantirishgan.

XIX asr va XX asr boshlarida, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, jadidlar harakati bilan milliy g‘oya yangi shaklga ega bo‘ldi. Jadidlar ma’rifatparvarlik va millatning o‘zini anglashini rivojlantirish orqali ozodlik va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surishgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi mutafakkirlar milliy uyg‘onish g‘oyalarini tarqatishdi. Sovet ittifoqi davrida milliy g‘oyani namoyon bo‘lishi, ushbu davrda milliy g‘oyani erkin ifoda etish cheklangan bo‘lsa-da, xalqning milliy o‘zligini saqlash va ma’naviy qadriyatlarini himoya qilish yo‘lidagi kurashi davom etdi. Mustaqillik davrida yaniy 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikni e’lon qilgach, milliy g‘oya yangi mazmun kasb etdi. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” degan tamoyil asosida milliy g‘oya xalqning ijtimoiy hayoti, davlat qurilishi va ma’naviy yuksalishining asosiy ustuniga aylandi.

Milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari va qadriyatları avvalo xalqning ozodlikka erishgandan keyingi davri bilan tarixga quydagicha jarayonlar bilan izohlanadi. Milliy g‘oya xalqning ma’naviy-axloqiy va tarixiy qadriyatlariga tayanadi. O‘zbekiston misolida milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Vatanparvarlik vatanni sevish, uni obod qilish va kelajak avlodlarga munosib qoldirish g‘oyasi.
2. Erkinlik va mustaqillik siyosiy va iqtisodiy mustaqillikni saqlash va mustahkamlash.
3. Ma’naviy barkamollik yuksak axloq, madaniyat va ma’rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish.
4. Tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni saqlash o‘tgan avlodlar merosini e’zozlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish.
5. Din va dunyoviylik uyg‘unligi turli e’tiqod va dunyoqarashlarni hurmat qilish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash.

Milliy g‘oyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida gap borganda milliy g‘oya jamiyatning turli sohalarida namoyon bo‘ladi. Quyida uning asosiy namoyon bo‘lish xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz:

Ta’lim tizimida milliy g‘oya: Milliy g‘oya yosh avlodning ta’limida muhim o‘rin tutadi va tarbiya va ta’lim orqali vatanparvar, bilimli va ma’rifatli yoshlar shakllantiriladi.

Madaniyat va san'at bilan bog'liq jarayonida milliy g'oya san'at va madaniyatda o'z aksini topadi. Milliy teatr, adabiyot, musiqa va kinofilmlar orqali xalqning tarixiy qahramonlari, qadriyatlari va an'analari tarannum etiladi. Davlat siyosati darajasida milliy g'oya davlatning ichki va tashqi siyosatida, qonunlarida o'z ifodasini topadi. Bu O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qilish va barqaror rivojlanish strategiyasida ko'rindi. Fuqarolik jamiyati avvalo bu fuqarolar o'zaro hamjihatlik va birdamlik asosida milliy g'oyani hayotda amalga oshiradi. Nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Milliy g'oya xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va kelajak intilishlarini birlashtiruvchi g'oyaviy asosdir. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda milliy g'oya asosida jamiyatning barcha jabhalarida yuksalish va taraqqiyotga erishildi. Kelajakda millatimiz taqdirini milliy g'oyani yanada rivojlantirish, uni yosh avlod ongiga chuqur singdirish va xalqni birlashtirishda muhim omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salimov N. Ma'naviy yuksalish va milliy o'zlikni anglash. Toshkent. 2012-yil. Yangi asr avlod.
2. Rasulov T. Milliy g'oya: asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent. 2006-yil O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Bekmurodov U. Milliy istiqlol g'oyasi va fuqarolik jamiyati. Toshkent. 2004-yil Ma'naviyat nashriyoti.
4. Sharipov S. Tarix va milliy g'oya. Toshkent. 2003-yil Fan nashriyoti.
6. G'afurov R. O'zbek davlatchiligi va milliy qadriyatlar. Toshkent. 2010-yil O'zbekiston nashriyoti.
7. <https://www.president.uz/oz/lists/view/7770>
8. www.ziyo.uz